

**ABDULLA ORIPOV SHE RLARIDA QO LLANGAN AYRIM
PRETSEDENT NOMLARNING LEKSEK-SEMANTIK TASNIFI**

Abdurahmonov Shavkatjon Ashurovich,

NamDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti,

filologiya fanlari nomzodi

Tilshunos8@gmail.ru

+998934062939

Topiljonova Namuna Muydinjon qizi

NamDU mustaqil tadqiqotchisi

namunatopiljanova@gmail.ru

+998886650667

Annotatsiya: maqolada Abdulla Oripov she'rlarida qo'llangan ayrim pretsedent nomlarning o'zbek tilshunosligidagi ahamiyati va turlari, shuningdek, shoir pretsedent birliklarni qo'llash mahorati va ularning she'riy matndagi poetik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *pretsedent nom, diniy pretsedent birliklar, tarixiy pretsedent birliklar, adabiy pretsedent birliklar, global (umumjahon) pretsedent birliklar.*

Абдурахманов Шавкатжон Ашурович,

Доцент кафедры узбекского языкознания НамГУ,

кандидат филологических наук

Топилжонова Намуна Муйдинжон кизи,

Независимый исследователь НамГУ

**ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ
НЕКОТОРЫХ ПРЕЦЕДЕНТНЫХ ИМЕН, ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В
СТИХАХ АБДУЛЛЫ АРИПОВА**

Аннотация: В статье проанализировано значение и типы в узбекской лингвистике некоторых прецедентных имен, использованных в стихах Абдуллы Арипова, а также умение поэта применять прецедентные единицы и их поэтические особенности в поэтическом тексте.

Ключевые слова: *прецедент название, религиозный прецедент единицы, исторический прецедент единицы, литературный прецедент единицы, глобальный (универсальный) прецедент единицы.*

Abdurahmanov Shavkatjon Ashurovich,

Associate Professor of the Department
of Uzbek Linguistics of NamSU,
candidate of philological sciences

Topiljonova Namuna Muydinjan kizi,

Independent researcher of NamSU

LEXICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF CERTAIN PRECEDENT NOUNS USED IN THE POEMS OF ABDULLAH ORIPOV

Annotation: the article analyzes the importance and types of certain prepositional names used in the poems of Abdullah Oripov in Uzbek linguistics, as well as the skill of the poet to apply prepositional units and their poetic features in the poetic text.

Keywords: *precedent name, religious precedent units, historical precedent units, literary precedent units, global (universal) precedent units.*

KIRISH

Pretsedent birliklar madaniyat, tarix, din va adabiyot orqali shakllangan, o'quvchi tomonidan o'sha birliklar matnda uchraganda darhol tan olinadigan til birliklari hisoblanadi. Ular matnda chuqur semantik qatlam hosil qiladi va o'quvchida tayyor assotsiatsiyalar uyg'otadi. Abdulla Oripov asarlarida bu birliklar keng qo'llanib, milliy va umuminsoniy g'oyalarni yuksak badiiy mahorat bilan ifodalaydi. XX asr o'zbek adabiyotida o'ziga xos adabiy maktab yaratgan ijodkorlardan biri Abdulla Oripov bo'lib, uning asarlarida milliy ruh, xalq tafakkuri, falsafa va umuminsoniy qadriyatlar chuqur ifodalangan. Shoir o'zining poetik qarashlari orqali xalq ruhiyatiga singib ketgan tarixiy, diniy, milliy-madaniy va global qadriyatlarni badiiy talqin etishga erishgan. Aynan shu

jiyat uning asarlarida pretsedent birliklar keng va teran qo'llanilishiga zamin yaratgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Dunyo tilshunosligida pretsedent birliklar masalasi o'tgan asrdayoq chuqur tadqiq etilgan. Chunonchi, rus tilshunosligida bu sohadagi izlanishlar ko'proq. Xususan, Y.N.Karaulov, D.V.Bagayeva, O.C.Boyarskix, C.V.Bannikova, Y.A.Blinova, O.A.Vorojtova, D.B. Gudkov, E.A.Naximova, N.M.Orlova, I.P.Ziryanova, M.Y.Ilyushkina, E.F.Kosichenko, G.G.Sergeevalarning pretsedent birliklar va ularning turlaridan biri hisoblangan pretsedent nomlarni tadqiq etishgan. O'zbek tilshunosligida ham onomastik birliklar keng tadqiq etilgan. E.Begmatov, G.Sattorov, S.Rahimova, D.Yo'ldashev, R. Xudoyberganov, S.Husanov, N.Uluqov, M.Mamajonov, S.Kenjayevalarning tadqiqot ishlarida onomastika sohasi chuqur o'rganilgan. Lekin onomastika guruhiga kiruvchi pretsedent nomlar o'zbek tilshunosligida olimlarimiz tomonidan to'liq o'rganilib chiqilmagan. Jumladan, 2022-yilda N.Ahmadjonov "Badiiy uslubda qo'llanilgan pretsedent nomlarning lingvopoetik tadqiqi" [1] nomli dissertatsiya ishida ularni turli badiiy manbalardan olingan misollar asosida tadqiq qilgan. Biroq Abdulla Oripov she'rlarida pretsedent birliklar o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada Abdulla Oripovning she'rlarida qo'llangan pretsedent birliklarni tadqiq etish jarayonida tasniflash, lingvistik tahlil, lingvopoetik tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILLARI

Pretsedent birliklar – bu til birliklari bo'lib, ular madaniy, tarixiy yoki diniy manbalarga asoslangan holda shakllangan va o'quvchilar tomonidan avvaldan ma'lum bo'lgan, assotsiativ mazmunga ega ibora yoki ifodalar sifatida qaraladi. Pretsedent birliklar matn yaratishda tayyor bilimlar asosida tushuniladi, ular matnning semantik va uslubiy boyligiga xizmat qiladi. Bu birliklar o'quvchida tayyor assotsiatsiya uyg'otishi, fikrni tez, chuqur va qisqacha ifodalash imkonini berishi bilan ahamiyatlidir. Yu.N. Karaulov pretsedent birliklarni til va madaniyat

bog'lovchisi sifatida baholaydi[1]. V.I. Krasnyx esa pretsedent birliklarning ijtimoiy ongdagi faol ishlatilish darajasi ularning matn yaratishdagi ahamiyatini oshirishini ta'kidlaydi. Ayniqsa, bunday birliklarning diniy, tarixiy, milliy va universal shakllari o'quvchi tomonidan tez anglashilib, matnning chuqur qatlamlariga tushuncha beradi. Pretsedent birliklarning ilmiy tasnifi, shuningdek, V.I. Krasnyx tomonidan chuqur tahlil qilingan bo'lib, u bu birliklarni o'z ichida madaniy, diniy, tarixiy qatlamlarga ajratishni taklif qiladi.[2] Abdulla Oripov asarlarida uchraydigan pretsedent birliklar – bu shunchaki tilda mavjud tayyor birliklar emas, balki shoir tomonidan mahorat bilan tanlangan, badiiy tasvir orqali yangi semantik imkoniyat kasb etgan vositalardir. Shoir diniy manbalardan, tarixiy shaxslardan, milliy qahramonlardan, adabiy merosdan va hatto jahon madaniyatidan foydalanib, matnining semantik strukturasi boyitadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Abdulla Oripov o'z asarlarida pretsedent birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan holda ulardan mahorat bilan foydalanadi. Bunday birliklar shoir asarlarida:

- Diniy-falsafiy mazmun yaratishda,
- Tarixiy xotirani mustahkamlashda,
- Milliy o'zlikni ta'kidlashda,
- Matnlararo bog'liqlik o'rnatishda,
- Umuminsoniy qadriyatlarni badiiy yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, pretsedent birliklar yordamida Abdulla Oripov xalq tafakkurida avvaldan mavjud bo'lgan tushunchalar va obrazlarni zamonaviy talqin bilan uyg'unlashtiradi. Bu, bir tomondan, shoir asarlarining xalqchilik, o'quvchiga yaqinlik jihatini oshirsa, ikkinchi tomondan, badiiy nutqning semantik chuqurligini ta'minlaydi.

1. Diniy pretsedent birliklar – bu diniy manbalardan (Qur'oni karim, hadislar, diniy rivoyatlar va ilohiy shaxslar) kelib chiqqan, madaniyat va xalq tafakkurida mustahkam o'rin egallagan til birliklari bo'lib, ular matnda ishlatilganda darhol o'quvchi ongida tayyor assotsiatsiyalar uyg'otadi. Diniy birliklar xalq ma'naviyatida, mentalitetida va kundalik nutqida chuqur ildiz

otganligi bois ularning pretsedent sifatida matnda ishlatilishi chuqur semantik va emotsional yuk tashiydi. V.I. Krasnyx o'zining asarida diniy pretsedent birliklarni madaniyatdagi eng barqaror va tez taniladigan birliklar qatorida baholaydi. Uning ta'kidlashicha: "Ma'naviy va diniy pretsedent birliklar jamiyatda o'zining yuqori darajadagi tanilganligi bilan ajralib turadi va ular mavjud barqaror madaniy tasavvurlarni faollashtira oladi[3]. Bu fikr diniy birliklarning pretsedent hodisalar ichida eng kuchli madaniy kod bo'lishini ko'rsatadi.

Yu.N. Karaulov o'zining "Русский язык и языковая личность" asarida pretsedent birliklarning inson ongi va madaniy xotiradagi asosiy manbalaridan biri sifatida diniy birliklarni alohida tilga oladi. Uning fikriga ko'ra: "Diniy matnlar va shaxslar ismlari pretsedent birliklarning barqaror qismiga kiradi va ular til egasining madaniy hamda til muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [4]. Bu fikr diniy birliklarning madaniy va til asosida o'rnatilgan chuqur assotsiatsiyalar manbai ekanligini ko'rsatadi.

Abdulla Oripov ijodida diniy pretsedent birliklar falsafiy, axloqiy va umumbashariy g'oyalarni yoritish uchun vosita sifatida keng qo'llanadi. U diniy birliklar orqali matnga nafaqat ramziy ma'nolar, balki xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi va qadriyatlarini singdiradi. Diniy pretsedent birliklar Abdulla Oripov asarlarida diniy tushunchalarni zamonaviy talqinda ifodalash, falsafiy chuqurlik yaratish, axloqiy g'oyalarni kuchaytirish va xalq ma'naviyatiga yaqinlik hosil qilish kabi vazifalarni bajaradi. Shoir diniy birliklardan sifat jihatidan yangicha ma'nolar ochishda, ularni ramziy va falsafiy obrazlarga aylantirishda juda mahoratli. Abdulla Oripov asarlarida diniy pretsedent birliklar Qur'oni karim, hadislar, payg'ambarlar va islomiy qadriyatlar orqali ko'rinadi. Bunday birliklar shoir asarlarida chuqur falsafiy va axloqiy ma'nolar yukiga ega bo'lib, yaxshilik, yomonlik, sabr, haqiqat kabi mavzularni yoritishda keng foydalaniladi. Masalan,

Ul kuni Muhammad xokisor banda

Alloh nazariga bo'lgandi noil.

Sokin hujrasida o'ychan turganda,

Tushdi huzuriga Hazrat Jabroil.[5]

Jabroil nomli ushbu she'rda Muhammad(s.a.v)ning ismlari, Hazrati Jabroil kabi diniy pretsedent birliklar she'rda chuqur falsafiy ma'noga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Abdulla Oripov ijodining aksariyat she'riy namunalari tahlilida diniy pretsedent birliklarning faol qo'llanilishi kuzatiladi. Shoir asarlarida bu birliklar diniy mazmun va qadriyatlarni matnga singdirish, o'quvchida ma'naviy-assotsiativ bog'lanmalarni uyg'otish hamda badiiy ifodaning chuqurligini ta'minlash vazifasini bajaradi. Odam va Shayton qissasida ham buni uchratishimiz mumkin[6]:

Juda-juda qadim zamon
Yuz berib bir xatomiz,
Arshdan ketgan **Momo Havo**
Hamda **Odam Atomiz**.

Bu to'rtlikda Momo Havo va Odam Ato nomlari diniy pretsedent nomlar sifatida namoyon bo'lib, ular insoniyat yaratilishi bilan bog'liq diniy tushunchalarni eslatish orqali matnda chuqur semantik qatlam kiritadi. Bu pretsedent nomlar diniy-madaniy kod sifatida o'quvchi darhol tanish bo'lib, qadimiy rivoyat va ilohiy asosga tayangan semantik maydonni hosil qiladi.

2. Tarixiy pretsedent birliklar bu til egasi (millat, xalq) tomonidan ilgari bilingan, ijtimoiy ongda barqaror o'rnatilgan va madaniy xotirada mustahkam o'rnatilgan bo'lgan tarixiy shaxslar, tarixiy voqealar, davrlar, joylar va ramzlar hisoblanadi.

Tilshunos olim V.I. Krasnyx ta'kidlashicha: Tarixiy pretsedent fenomenlar xalqning jamoaviy xotirasini shakllantiradi va milliy identifikatsiyaning asosiy vositalaridan biridir. [7]

Abdulla Oripov asarlarida tarixiy pretsedent birliklar "O'zbekiston" she'rida Bobur, Alpomish, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek kabi shaxslar orqali milliy tarix ulug'lanadi.

Ko'p jahongir ko'rgan bu dunyo,

Hammasiga guvoh yer osti.
 Lekin, do'stlar, she'r ahli aro
 Jahongiri kam bo'lar rosti.
 Besh asrkim, nazmiy saroyini
 Titratadi zanjirand bir she'r.
Temur tig'i yetmagan joyni
 Qalam bilan oldi **Alisher**.
 Dunyo bo'ldi chamanim mani,
 O'zbekiston vatanim mani[8].

Bu she'riy parchadagi Temur, Alisher kabi pretsedent birliklar tarixiy pretsedent nom tarkibiga kiradi.

Tarixiy pretsedent birliklar turlari o'zbek adabiyoti va madaniyatida muhim o'rin tutadi. Ular xalq xotirasi, tarixiy ong va milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda tarixiy pretsedent birliklarning asosiy turlari, misollari va ma'nolari keltirilgan.

Turi	Misollar	Ma'nosi
Tarixiy shaxslar	Bobur, Amir Temur, Alpomish	Qahramonlik, adolat, jasorat ramzi
Tarixiy joylar	Buxoro, Samarqand, O'rta Osiyo	Ilm, madaniyat, islom markazi ramzi
Tarixiy voqealar	Mustaqillik, Urush yillari	Vatan uchun kurash, milliy uyg'onish ramzi
Tarixiy davrlar	Temuriylar, Boburiylar davri	Buyuk imperiyalar, madaniy taraqqiyot ramzi

Tarixiy pretsedent birliklarning ushbu turlari badiiy matnda shoir tomonidan xalq xotirasini jonlantirish, milliy g'urur va qadriyatlarni ulug'lashda samarali til vositasi sifatida ishlatiladi.

Tarixiy pretsedent birliklar xalq xotirasi va milliy o'zlikni shakllantiruvchi asosiy til birliklaridir. Abdulla Oripov asarlarida bu birliklar orqali shoir milliy tarixni qayta kashf qiladi, shaxsiy va xalqiy ruhiyatni uyg'otadi. Tarixiy pretsedent birliklar o'quvchida kuchli ramziy va assotsiativ tasavvurlar

uyg otadi. Tarixiy pretsedent birliklar orqali shoir milliy g urur, jasorat va vatanparvarlik g oyalarini yuksaltiradi. Tarixiy shaxslar va muhim voqealar ularga asos bo ladi.

3. Milliy-madaniy pretsedent birliklar bu ma lum bir millat, xalq yoki madaniyat vakillariga yaxshi tanish bo lgan, ularning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, qadriyatlari va an analari bilan chambarchas bog liq bo lgan til birliklaridir. V.I. Krasnyx ta kidlashicha, Milliy-madaniy pretsedent birliklar bu faqat ma lum bir millatga xos bo lgan tarixiy, madaniy, ma naviy tushunchalar va belgilar bo lib, boshqa madaniyat vakillari uchun bu birliklarning ma nosi aniq bo lmasligi mumkin. [9]

Milliy-madaniy pretsedent birliklarning turlari:

1. Xalq og zaki ijod namunasi: Alpomish, Go ro g li, Yor-yor;
2. Milliy qadriyat va an ana: Navro z, Sumalak, To y;
3. Milliy ramzlar: Oq yo lak, dasturxon;
4. Milliy urf-odat : Kelinsalom, Beshik to y;
5. Madaniy obyektlar: Registon, Minorayi Kalon, Shohi Zinda.

Abdulla Oripov asarlarida milliy-madaniy pretsedent birliklar mavjud:

Merosiy polvonsan, **Alpomish** otang,

Ko zingdan chaqnaydi oftob shu lasi.

Raqibingni siltab osmonga otsang

Oyni ko rib qaytar bira-to lasi.[10]

Alpomish xalq og zaki ijodining qahramoni, milliy sadoqat, kuch va vatanparvarlik ramzi. Alpomish obrazi orqali yigitlarni u kabi mardlikka, jasurlikka undaladi. Abdulla Oripovning yana bir she rida esa:

Milliy-madaniy pretsedent birliklar o zbek xalqining tarixiy va madaniy xotirasini jonlantiradi. Abdulla Oripov milliy-madaniy pretsedent birliklarni xalq ruhiyatini, milliy g urur va qadriyatlarni yuksaltirishda ustalik bilan qo llaydi. Bu birliklar matnga chuqur milliy zamir va madaniy rang bag ishlaydi. Milliy qadriyatlar va xalq og zaki ijodi orqali shakllangan birliklar milliy tafakkur va xalq ruhiyatini aks ettiradi.

4. Adabiy pretsedent birliklar bu muayyan madaniyatga mansub bo'lgan badiiy adabiyotlarda yaratilgan mashhur obrazlar, asarlar, muallif nomlari yoki ularning ayrim til birikmalari asosida shakllangan, keng ommaga tanish bo'lgan va muayyan semantik yuklamaga ega bo'lgan til birliklaridir. Ular matnda bevosita eslatilmasada, o'quvchi yoki tinglovchi tomonidan darhol tanilib, muayyan ma'no, hissiy-emotsional yoki stilistik yuklama hosil qiladi.

Adabiy pretsedent birliklarga misollar:

- Layli va Majnun abadiy muhabbat timsoli sifatida.
- Alpomish xalq qahramoni, matonat va jasorat timsoli sifatida.
- Don Kixot haqiqatparast va real voqelikdan uzoqlashgan orzuga yong'ir obraz sifatida.

- Romeo va Juletta fojiali sevgi timsoli.

Romeoday o'limga ham tayyorman u kez,

Qotillik ham qilay, mayli, Otello monand

Faqat sen kel, yuragimda armon bo'lgan his,

Sensiz hayot puch bir narsa, ermak, omonat...[11]

Adabiy pretsedent birliklar orqali shoir o'zbek va jahon adabiyotining buyuk shaxslariga murojaat qiladi, bu esa matnlararo bog'liqlikni kuchaytiradi.

5. Global pretsedent birliklar bu butun insoniyatga tanish bo'lgan, turli madaniyat, millat va tillarda keng tarqalgan, umumiy xotirada saqlanadigan tarixiy, diniy, adabiy yoki mifologik birliklardir. Ular xalqaro darajadagi madaniy kod sifatida xizmat qiladi va biror millatga emas, balki umumiy insoniyat ongiga mansub bo'ladi.

Asosiy xususiyatlari

Belgilar	Tavsifi
Universallik	Har xil tillarda, madaniyatlarda tushuniladigan umumiy ramz yoki obraz.
Barqarorlik	Uzoq tarixiy davr mobaynida matnlarda saqlanib qolgan.

Intertekstual ochiqlik	Har xil matn va kontekstlarda tez-tez takror ishlatiladi.
Simvolik yuklama	O zida axloqiy, diniy, tarixiy yoki estetik qiymatni mujassam etadi.

Misollar

Pretsedent birlik	Qisqacha tavsifi	Tashuvchi konnotatsiya
Odam Ato va Momo Havo	Injil, Qur on, Tavrotda ilk insonlar	Yaratilish, gunoh, insoniyatning boshlanishi
Nuh kemasi	Butun insoniyatni qutqarish voqeasi	Halokat va najot ramzi
Zolushka	Yevropa xalq ertagi	Umid, sadoqat va g alaba
Don Kixot	Servantes romani qahramoni	Idealizm va samimiylik
Prometey	Yunon mifologiyasi	Fidoyilik, insoniyatga xizmat qilish
Layli va Majnun	Sharq adabiyotidagi sevgi afsonasi	Pok muhabbat, fidoyilik

-V.V. Krasnyx: Global pretsedent birliklar milliy tafakkur chegarasini kengaytiradi va insoniyat xotirasining umumiy semantik yadrosini tashkil etadi. [12]

- D.B. Gudkov: Pretsedent birliklar faqat milliy emas, balki universal semantik kodga ega bo lishi mumkin. [13]

Global pretsedent birliklar turli xalqlarning umumiy madaniy xotirasida saqlanib qolgan, tarixiy, diniy va badiiy birliklar bo lib, ular milliy chegaradan chiqib, umuminsoniy semantik aloqa vositasiga aylangan. Ular matnda intertekstual boylik, madaniy simvol va axloqiy o lchov sifatida xizmat qiladi.


Abdulla Oripov o z asarlarida insoniyatga umumiy bo lgan qadriyatlar va jahon madaniyatiga oid birliklardan ham foydalanadi.

Amerika sehrli diyor,

Uxlar edi **Kolumb** ham hali,
Dengiz ortin yoritdi ilk bor,
Beruniyning aql mash ali,
Kolumbda bor alamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.[14]

Quyidagi diagrammada Abdulla Oripovning badiiy ijodida uchraydigan pretsedent birliklarning leksik-semantik tasnifi asosiy guruhlariga ajratilgan. Tasnif diniy, tarixiy, milliy-madaniy, adabiy va global birliklarni o'z ichiga oladi. Har bir toifa o'zining semantik yuklamasi va matndagi funksiyasi bilan ajralib turadi.

Abdulla Oripov asarlarida pretsedent birliklarning leksik-semantik tasnifi



1-rasm. Abdulla Oripov asarlarida pretsedent birliklarning leksik-semantik tasnifi.

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, Abdulla Oripov she'riyati keng qamrovli pretsedent birliklar tizimiga ega bo'lib, ular orqali shoir diniy-falsafiy, tarixiy-milliy va madaniy-estetik g'oyalarni badiiy tarzda ifodalaydi. Bunday birliklar matnga chuqur semantik qatlam va intertekstual aloqadorlik baxsh etadi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlil qilingan fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, pretsedent nomlar Abdulla Oripov she'riyati keng qamrovli pretsedent birliklar tizimiga ega bo'lib, ular orqali shoir diniy-falsafiy, tarixiy-milliy va madaniy-

estetik g oyalarni badiiy tarzda ifodalaydi. Bunday birliklar matnga chuqur semantik qatlam va intertekstual aloqadorlik baxsh etadi.

ADABIYOTLAR RO YXATI:

1.Ahmadjonov N. Badiiy uslubda qo llanilgan pretsedent nomlarning lingvopoetik tadqiqi:Filol.fan. falsafa doktori)diss. F. 2022.

2.Ю.Н. Караулов. "Русский язык и языковая личность". – Москва: Наука, 1987.

3.В.И. Красных. "Прецедентные феномены в культуре и общении". – Москва: Гнозис, 2003.

4. Oripov A. Saylanma. T. – Tafakkur qanoti:2018, B-111

5.Oripov A. Quyosh bekati:she’rlar, maqolalar, suhbatlar – T., “Sharq”, 2010. – B.384

6.Красных В.В.Система претцедент феноменов. – М.,1997.

7.Гудков Д.Б., Красных В.В., Захаренко И.В., Багаева Д.В. «Когнитивная база и прецедентные феномены в системе других единиц и в коммуникации»Вестник Московского университета. Филология, № 3, 1997, с. 62–85.

8.Xudoyberganova D. Matnning atroposentrik tadqiqi. – Monografiya. – T.:Fan nashriyoti.2013. B.135.

9. Oripov A. Birinchi muhabbatim. T. – G‘.G‘ulom:2019. B.8